

## Milliy sertifikat

## TARIX

## Smart books

1. Quyidagilar orasidan **nomuvofiqlikka** yo`l qo`yilgan javobni aniqlang  
A)Syuan Szyan – Xitoyga Farg’ona otlaridan birini va beda urug’ini olib kelgan elchi  
B)Mag’rur Tarkviniy – Qadimgi Rimda saylab qo`yilgan hukmdorni o’ldirib taxtni egallab olgan shaxs  
C)Mark Krass – Spartak qo’zg’olonini bostirgan Rim sarkardasi  
D)Pompey – Mil.avv I asrda Rimda hokimiyat uchun Sezarga birdan-bir xavfli raqib bo’lgan sarkarda
2. Quyidagi **shaxslar va ularga tegishli ma`lumotlar to`g`ri ko`rsatilgan** javoblarni aniqlang.  
1)Solon; 2)Perikl; 3)Drakont.  
a)Mil.avv VII asrda xalq boshqaruvini bekor qilgan qonunlarni yozgan shaxs;  
b)Afinada saylab qo`yilgan hukmdorni o’ldirib taxtni egallab olgan shaxs;  
c)Afinada boshqaruv tizimini aristokratiyadan demokratiyaga almashtirgan hukmdor; d)Afinada katta qurilish ishlari amalga oshirgan hukmdor;  
e)Salamin bog’ozidagi jangda yunonlarga sarkardalik qilgan Afina hukmdori;  
f)Marofon tekisligidagi jangda yunonlarga boshchilik qilgan Fiva hukmdori  
A)1-d; 2-c; 3-b                                      B)1-c; 2-d; 3-a  
C)1-d; 2-e; 3-b                                      D)1-c; 2-f; 3-a

3. Qaysi saljuqiy hukmdor otasi boshlab bergen sharqqa yurishlarni davom ettirib, Qoraxoniylarga zarba beradi va 1074-yili Buxoro va Samarqandni egallaydi?  
A)Alp Arslon                                      B)Sulton Malikshoh  
C)Sulton Sanjar                                      D)Sulton Barqiyoruq
4. Quyida berilgan ma`lumotlar **to`g`ri xronologik ketma-ketlikda** berilgan javobni aniqlang.  
1)AQSH kongresi Janubdagisi sobiq isyonchilarga umumiylaf berish to`g`risidagi qonun qabul qildi;  
2)AQSH prezidenti Monro tomonidan “Monro doktrinasi qabul qilindi;  
3)Muqaddas Rim imperiyasi tugatildi; 4) Buyuk Britaniya hukumati irlandlarga gomrul o’rniga “Yer-suv akti” ni taklif qildi;  
5)G.V. Plexanov tomonidan “Mehnatni ozod qilish” guruhi tuzildi; 6)Lotin Amerikasida ommaviy qo’zg’olon boshlandi; 7)Fransiya Vyetnamni bosib oldi; 8)Leypsig yonida “Xalqlar janggi” bo’lib o’tdi; 9)Efiopiya imperatori Menelik sudanliklar foydasini ko’zlovchi bitimni imzolashga majbur bo’ldi.  
A)3, 6, 8, 2, 1, 4, 5, 7, 9  
B)6, 8, 3, 2, 1, 5, 4, 9, 7  
C)3, 6, 8, 2, 4, 1, 5, 7, 9  
D)6, 3, 8, 2, 1, 5, 9, 4, 7

5. Quyida berilgan atamalar va ularning izohi **to'g'ri moslashtirilgan** javobni toping.

- |                                   |  |
|-----------------------------------|--|
| <b>I</b><br><b>Doktriana</b>      | <b>a</b> ilmiy yoki falsafiy ta'lilot, nazariya; asosiy nazariy yoki siyosiy nuqtayi nazar   |
| <b>II</b><br><b>Delimitatsiya</b> | <b>b</b> davlat chegaralarini tuzilgan shartnomaga muvofi q tavsifl ash va xaritalashtirish asosida belgilash; belgilangan chegaralarni qayta ko'rib chiqish |
| <b>III</b><br><b>Seminariya</b>   | <b>c</b> xristian cherkovlari uchun ruhoniyalar tayyorlaydigan o'quv yurti.  |
| <b>IV</b><br><b>Baynalmilal</b>   | <b>d</b> xalqaro, umuminsoniy, umumxalqiy mazmunlarida qo'llaniladi  |
|                                   | <b>e</b> rivojlangan yirik aksiyadorlar jamiyatasi, biron-bir faoliyat uchun uyushgan yuridik va jismoniy shaxslar majmui                                    |

- A)I-e, II-a, III-b, IV-d  
C)I-a, II-b, III-c, IV-d

- B)I-e, II-a, III-d, IV-b  
D)I-a, II-d, III-c, IV-b

6. Quyida berilgan atamalar va ularning izohi **to'g'ri moslashtirilgan** javobni toping.

- |                                    |  |
|------------------------------------|--|
| <b>I</b><br><b>Populizm</b>        | <b>a</b> yuqori rahbar organlar tomonidan berilgan va bajarilishi majburiy sanalgan rasmiy yo'l-yo'riq, dastur, ko'rsatma                            |
| <b>II</b><br><b>Irratsionallik</b> | <b>b</b> saralangan fuqarolarning ehtiyojlariga emas, xalq ommasi ehtiyojlariga qaratilgan siyosiy pozitsiya yoki nutq shakli.                       |
| <b>III</b><br><b>Dotatsiya</b>     | <b>c</b> bu vogelikni bilishda ongning imkoniyatini rad etuvchi yoki uni juda cheklangan deb biluvchi falsafiy konsepsiya                            |
| <b>IV</b><br><b>Logistika</b>      | <b>d</b> ma'lum xarajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotning bir subyekt tomonidan ikkinchisiga qaytarib bermaslik sharti bilan pul mablag'i berilishi |
|                                    | <b>e</b> inson faoliyatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta'minlashni boshqarish tizimi.  |

- A)I-e, II-c, III-b, IV-a  
C)I-e, II-c, III-a, IV-b

- B)I-b, II-c, III-d, IV-e  
D)I-e, II-d, III-c, IV-b

## 7. Tarixiy shaxsni aniqlang

“Ushbu hukmdor Eronning zamonaviy, o‘qimishli davlat rahbarlaridan biri edi. U mamlakatda korrupsiyaga qarshi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. 1963-yili referendum o‘tkazilib, mamlakatda islohotlar o‘tkazish taklifini kiritdi. Referendumda aholi shoh takliflarini qo‘lladi. Bu islohotlar umumiy nom bilan “Oq inqilob” deb ataldi”.

- A)Muhammad Najibullo
- B)Muhammad Ali shoh
- C)Muhammad Rizo Pahlaviy
- D)Nurmuhammad Ali Rizo shoh

8. “Ushbu shaxs G’aznaviylar davlatini 977-997-yillarda boshqargan. Uning davrida davlat somoniylar tomonidan e’tirof etiladi. Ushbu shaxs asli Sirdaryo bo‘ylarida yashagan barsxon turkiy qabilasiga mansub bo‘lib, yoshligida asir olinib, so‘ngra qul qilib sotilgan edi. Shijoatkor sarkarda sifatida tanilgan ushbu shaxs dushmanlarga qarshi kurashda somoniylarga yordam beradi va «Nosiriddin ad-davla» (Davlat va din himoyachisi) degan sharafli nomga sazovor bo‘ladi”.

- A)Malikshoh
- B)Sabuktegin
- C)Alptegin
- D)Mahmud G’aznaviy

9. Quyidagi ma’lumotlar qaysi **mustaqil hokimlik haqida** ekanligini aniqlang (Ilk o’rta asrlar davridagi).

Ushbu hokimlik Chirchiq va Ohangaron havzalaridagi dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvadorlarning hududlari kesishgan mintaqada joylashgan. Bu hokimlikda sug’diy til va yozuv qatorida turkiy til va yozuvning amal qilishi Qanha shahri xarobasidan topilgan sopol idishlardagi bitiklarda o‘z aksini topgan. Ilk o’rta asrlarning ma’lum bir davrida, ushbu hokimlikni Turk xoqoni buyrug’iga ko‘ra Tegin Tyanchji boshqargan.

- A)Tohariston
- B)Baqtriya
- C)Choch
- D)Sug’d

## 10. Tarixiy davlatni aniqlang

Ikkinci jahon urushidan so‘ng mavjud sharoitga moslashib olgan amaldagi rejim ushbu davlatda yana o‘ttiz yili hokimiyatda turdi. 1946-yili BMT Bosh Assambleyasi ushbu davlatni xalqaro tashkilotlarga qabul qilmaslik to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi va tashkilotga a’zo bo‘lgan davlatlarga bu davlat bilan diplomatik munosabatlarni uzish tavsiya etildi. 1975-yili hokimiyat tepasiga kelgan davlat rahbari davrida G’arb davlatlari bilan yaqinlashish yo‘lini tutdi. Natijada, davlat 1982-yil mayda u NATOGa, 1985-yili esa YIHga a’zo bo‘ldi.

- A)GDR
- B)Ispaniya
- C)Italiya
- D)Gretsiya

11. Quyidagilardan **Qo’qon xoni Olimxon faoliyati bilan bog’liq to’g’ri ma’lumotlar** berilgan javobni aniqlang.

1)Uning davridan boshlab davlat Qo’qon xonligi deb atala boshlanadi; 2)Ohangaron vohasi, Chimkent, Sayram, Turkiston bosib olinadi; 3)Qo’qon xonligida birinchi bo‘lib xonlikning fals deb atalgan o‘z pulini zarb ettirdi; 4)O’sh va O’zgan viloyatlari bo‘ysindirildi; 5)Xonlikni 1798-1810-yillarda idora etadi; 6) Amir al-muslimin unvonini qabul qiladi; 7)Xonlikni 1810-1822-yillarda idora etadi; 8)Ushbu hukmdor kambag’allar va qalandarlarga yer va chorva mollari berib ularni mehnatga jalb qiladi; 9)O’zidan norozi bo‘lgan shahzodalarni turli viloyat va tumanlar hokimi etib tayinlaydi. Shu yo‘l bilan muxolifatning qarshiligini susaytirishga erishadi; 10)Ushbu hukmdor xonlik tarixida tarixda davlatni xonlik maqomiga ko’targan jasur hukmdor sifatida nom qoldiradi.

- A)1, 3, 5, 8, 10
- B)1, 2, 5, 8, 10
- C)1, 2, 6, 7, 10
- D)1, 4, 7, 9, 10

12. Quyida berilgan ma'lumotlardan qaysi biri XVIII asrning bиринчи yarmi **O'rta Osiyo davlatlari tarixi uchun xos** ?  
A) Farg'ona Buxoro xonligi tarkibidan ajrab chiqdi  
B) Rossiya imperiyasi tomonidan Oqmachit qal'asining bosib olinishi  
C) Andijonda Darveshxon boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarilishi  
D) Oydo'stbiy qo'zg'oloni bo'lib o'tdi
13. 1923-yil yozi va kuzida tashqi kuchlar tazyiqi bilan qaysi Nozirlar BXSR hukumati tarkibidan chiqarilgan ?  
1) Sattor Xo'jayev; 2) Abdurauf Fitrat;  
3) Muinjon Aminov; 4) Abduqodir Muhitdinov; 5) Qori Yo'dosh Po'latov;  
6) Otaulla Xo'jayev.  
A) 2, 3, 4, 5, 6                                     B) 1, 2, 3, 4, 6  
C) 1, 2, 4, 5, 6                                     D) 1, 2, 3, 5, 6
14. Qachon O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, unga ko'ra, Prezidentning **vakolati 7 yildan 5 yil muddatga qisqartirildi** ?  
A) 2010-yili   B) 2009-yili  
C) 2014-yili   D) 2011-yili
15. Mustaqil O'zbekiston tarixi bilan bog'liq qaysi **ma'lumotlar NOTO'G'RI berilgan**?  
I) 1990-1995-yillarda mamlakatimiz parlamenti Oliy Kengash nomi bilan atalib, 250 deputatdan iborat bo'lgan;  
II) Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati hisoblanib, Oliy Majlisning qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va famoysishalri bajarilishiga rahbarlikni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organidir;  
III) O'zbekistonda Favqulodda sudlar tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi;  
IV) 1991-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Mudofaa ishlari vazirligi tasarrufida Chegara qo'shnulari boshqarmasi tashkil etildi;  
V) Viloyatlar va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi;


VI) 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish ishlarida Prezident rahbarlik qiladigan 14 kishilik Milliy komissiya tuzildi.

- A) I, IV, V   B) II, IV, VI  
C) I, III, VI   D) II, III, VI

16. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida quyidagi hududlarning Yaponiya qo'l ostiga o'tishini to'g'ri xronologik tartibda belgilang

- 1) Penxu orollari; 2) Janubiy Saxalin;  
3) Kuril orollari; 4) Ryukyu orollari;  
5) Marshall orollari  
A) 1, 2, 4, 5, 3                                     B) 2, 1, 4, 3, 5  
C) 3, 4, 1, 2, 5                                     D) 4, 3, 5, 2, 1

17. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud (davlat) bilan bog'liq voqeani toping.



- A) 1867-yilda Tokugava sulolasi hukmronligi yakunlandi.  
B) 1636-yilda manjurlar sardori Abaxay o'zini xon deb atadi.  
C) 1392-yilda hokimiyat tepasiga Li sulolasi keldi.  
D) 1757-yilda Buyuk Britaniya unga tegishli Bengaliyani bosib oldi

18. Tarixiy voqe va uning natijasi o‘zaro **mos berilgan qatorlarni aniqlang**. aniqlang.

Nº	Voqea	Natija
1	Kiyev Rusi knyazi Igorning Vizantiyaga qarshi ikki marotaba yurish qilishi	Vizantianing jangsiz taslim bo’lib, Kiyevga o’lpon to’lashi
2	Saljuqiylar davlatining markazlashtirish uchun harakatning boshlanishi	Alp Arslon hukronligi davrida ilk bor ulusbegi lavozimining ta’sis etilishi
3	1613-yili Moskvada chaqirilgan zemstvo sobori	Rossiya taxtini 700 yildan oshirroq boshqargn ryuriklar sulolasining taxtga kelishi
4	1783-yili Britaniya va uning Amerikadagi sobiq mustamlakalari o’rtasida Parij sulhi imzolanishi	Buyuk Britaniya Amerika Qo’shma Shtatlarining tuzilganligini, uning mustaqilligi, ozodligi va suverenitetini tan olishi
5	Ispaniyada 1936-yil 18-iyul kuni falangachilar hamma joyda harbiy to’ntarishni boshlab yuborishi va ularga qarshi Ularga qarshi Xalq fronti jangga ko’tarilishi	Ikki yarim yil davom etgan fuqarolar urushining boshlanishi
6	Qirg’izistonda «Aprel inqilobi»ning yuz berishi	Kurmanbek Bakiyevning hokimiyatdan ag’darilishi

A)1, 4, 5, 6

B)1, 3, 5, 6

C)1, 2, 4, 5

D)1, 3, 4, 6

19. Quydagi jadvalda berilgan **davlat, asr va ularga aloqador voqea** to’g’ri ko’rsatilgan javob variantini aniqlang

Nº	Davlat	Asr	Voqea
1	Fransiya	XII-XIII	Mamlakatning qator shaharlarida senyorlarga qarshi kurash bo’lib o’tdi
2	Angliya	XVI	“Buyuk ozodlik xartiyasi” qabul qilindi
3	Fransiya	XII asr oxiri	Yangi o’zlashtirilgan yerlarda dehqonlar qaramligi bekor qilinib, soliqning bir qismi pul bilan to’lanadigan bo’ldi
4	Songai	XV	Marokash sultonini tomonidan bosib olindi
5	Yaponiya	XI-XII	Yer egaligi munosabatlari uzil-kesil shakllandi
6	Dehli sultonligi	XII-XIII	Davlat hududlarida musulmonlar hokimiyati uzil-kesil o’rnataladi

A)2, 3, 4, 5

C)1, 2, 3, 4


B)2, 4, 5, 6

D)1, 3, 5, 6

20. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eylen-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping

### **Qadimgi Misr tarixi**

Qadimgi podsholik Yanggi podsholik



- 1) Old Osiyo mamlakatlariga hujum qildi;  
2) Liviyyaga hujum qildi;  
3) Fir'avn Tutmos II Falastin, Finikiya va Suriyani istilo qilishni boshladi;  
4) Janubiy Falastin bosib olindi;  
5) Ko'chmanchi giksoslar hujumiga uchradi;  
6) Nubiyaga yurish amalgaga oshirildi;  
7) Sinay yarimoroli bosib olindi;  
8) Menes tomonidan asos solindi;  
9) Amonxotep tomonidan asos solindi  
A) I-2, 7; II-1, 3; III-6  
B) I-2, 4; II-3, 6; III-1  
C) I-2, 7; II-3, 6; III-1  
D) I-2, 6; II-1, 3; III-4

21. Salib yurishlari davrida salibchilardan Quddusni tortib olgan shaxs qaysi davlat asoschisi edi ?

- A) Ayyubiylar davlati  
B) Saljuqiyalar davlati  
C) Safaviyalar davlati  
D) Usmoniyalar davlati

22. O'rta asrlar tarixiga oid quyidagi davlatlarda yer egaligi munosabatlarining shakllangan asri(davri)ga qarab to'g'ri muvofiqlikda berilgan javobni aniqlang  
1) Yaponiya; 2) Hindiston; 3) Xitoy;

- 4) Vizantiya  
a) III asr; b) IV asr oxirida; c) IX-XI asrlar;  
d) XI-XII asrlar  
A) 1 – c, 2 – b, 3 – a, 4 – d  
B) 1 – c, 2 – a, 3 – b, 4 – d  
C) 1 – d, 2 – a, 3 – b, 4 – d  
D) 1 – d, 2 – b, 3 – a, 4 – c

23. Afg'oniston amirligi Buyuk Britaniya **manfaatlari mintaqasi** deb e'lon qilingan yili Rossiya (a) va Meksika (b) davlat rahbarlari berilgan javobni aniqlang  
A)a – Aleksandr III; b – P.Dias  
B)a – Aleksandr II; b – Madero  
C)a – Nikolay II; b – P.Dias  
D)a – Nikolay II; b – Madero

24. Qaysi Qo'qon xoni davrida **O'sh** aholisi soliqlarning haddat tashqari og'irligi tufayli qo'zg'olon ko'taradi?

- AMurodxon   B)Xudoyorxon  
C)Sheralixon   D)Madalixon

25. Birinchi jahon urushi boshlangach, Turkiston o'lkasida "**favqulodda muhofaza holati**" e'lon qilinib, bu tartibni buzganlar  
(a)...gacha qamoq yoki  
(b)... gacha jarimaga tortiladigan bo'ladi.  
Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javob variantini aniqlang.  
A)a-6 oy, b-100 so'm  
B)a-3 oy, b-50 so'm  
C)a-3 oy, b-75 so'm  
D)a-1 oy, b-30 so'm

26. Quyida berilgan qo'zg'olonlar haqidagi ma'lumotlar va ular sodir bo'lgan yil hamda joy o'zaro to'g'ri muvofiqlashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) Soliq to'plash noqonuniy tusga kirganligiga qarshi chiqib soliqlarni kamaytirishni talab qilishadi; 2) Hamma soliqlar to'langanligiga qaramay, aholidan qo'shimcha yer solig'i olinishiga qarshi ko'tariladi; 3) Talonchilik, jabr zulm avjiga chiqqanligi uchun ko'tariladil;  
4) Mingboshilar saylovlaridagi norozilik oshkora qo'zg'olonga aylanib ketadi  
a) 1896-yil, Namangan; b) 1880-yil, Xo'jand;  
c) 1882-yil, Namangan; c) 1879-yil, Farg'ona  
A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d                               B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a  
C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c                               D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

27. O'zaro **MUVOFIQLIK SAQLANMAGAN** javobni aniqlang.

- I)Qadimgi Hindiston; II)Qadimgi Yunoniston; III)Qadimgi Misr;  
IV)Mesopotamiya.  
a)Appolon; b)Indra; c)Braxma; d)Germes;  
e)Ishtar; f)Mars; g)Anubis; h)Apis; i)Sina

1)oliy xudo; 2)savdo-sotiq ma'budi;  
3)momaqaldiroq ilohasi; 4)yorug'lik,  
musiqa, she'riyat ma'budi; 5)oy ilohasi;  
6)hosildorlik, sevgi, urush va g'alaba  
ilohasi; 7)marhumlar va mumiyolanganlar  
ma'budi; 8)sharob ma'budi; 9)hosildorlik  
ma'budi.

- A)I – a·6; II – c·4; III – i·7; IV – g·5  
B)I – c·3; II – a·4; III – h·9; IV – e·6  
C)I – c·1; II – d·2; III – g·7; IV – i·5  
D)I – b·3; II – d·8; III – h·9; IV – e·4

28. “Ushbu inshoot, hech shubhasiz, ilk  
o'rta asrlarning eng mahobatli  
me'morchilik ishooti hisoblanadi. Uning  
ulkan gumbazi 40 ta deraza gulchambari  
bilan qurshalgan.” **Ushbu ta'rif qaysi  
inshoot haqida?**

- A)Kiyevdagi Avliyo Sofiya inshooti  
B)Konstantinopoldagi Avliyo Sofiya  
inshooti  
C)Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi  
C)Axendagi Buyuk Karl saroyi

### 30. Asarlar va ularning mualliflari to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1.“Tahqiqi viloyati Buxoro”

2.“Kitob ar-ruhnoma”

3.“Yulduzlar jadvali”

29. Quyida ta'rifi keltirilgan shahar nomi  
va u XIX asrning birinchi yarmida qaysi  
davlat tarkibiga **kirganligi to'g'ri  
ko'rsatilgan javobni** aniqlang.

- Shaharga oid ma'lumotlar X asrdan  
boshab uchraydi;
  - XVIII-XIX asrlarda nafaqat davlatning,  
balki O'rta Osiyoning yirik shaharlaridan  
biri bo'lgan;
  - 1842-yilda baland **devor bilan** o'rab  
olingan;
  - 12 ta darvozasi bo'lgan. 12 dahaga  
bo'lingan;
  - XIX asrning birinchi yarmida shaharda  
**30000** ming aholi yashagan.
- A)Xiva shahri (Xiva xonligi)  
B)Buxoro shahri (Buxoro amirligi)  
C)Qo'qon shahri (Qo'qon xonligi)  
D)Toshkent shahri (Qo'qon xonligi)

a) Abu Nasr Farobi

b) Narshaxiy

c) Ishtaxriy

d) Ptolomey

e) Aristotel

f) Al-Xorazmiy

- A)1-b, 2-f, 3-d  
C)1-a, 2-d, 3-f

- B)1-b, 2-e, 3-f  
D)1-c, 2-a, 3-b

31. Chizmada nomi keltirilgan shaxslar va ularga tegishli ma'lumotlar **to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.**

**1.E.Rezerford**

a) Hamma atomlar og'ir yadroga ega ekanligini isbotladi

**2. Vyelye**

b) plastmassa olish yo'lini topdi

c) Raqamli hisoblash mashinasini yaratdi

**3. I.A.Time**

d) Piroksilinli tutinsiz porox tayyorladi

e) tikuv mashinalarini dasturlashtirishni yaratdi

f) Metall kesish jarayonini ilmiy jihatdan tekshirdi

A)1-a, 2-d, 3-f

C)1-e, 2-f, 3-d

B)1-e, 2-b, 3-a

D)1-a, 2-b, 3-f

32. Quyidagi javoblardan **xokku janrining eng mashhur vakili nomi berilgan javobni aniqlang.**

A)Chon Son,  
C)Li Myonuk

B)Masuo Basyo  
D)Kim Xondo

**33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang.**

33. Berilganlardan qaysi biri Usmonlilar imperiyasi (Turkiya) tarixiga oid?	A)Inglizlarga qarshi “30 may harakati” nomini olgan namoyishlar yuz berdi
34. Berilganlardan qaysi biri Eron davlati tarixiga oid ?	B)“Yangi tuzum”(Nizomi jadid) deb nomlangan islohotlar amalga oshirildi
35. Berilganlardan qaysi biri Afrika davlatlarining birini tarixiga oid ?	C)1710-yilda dehqonlarning yerni tashlab ketishlarini taqiqlovchi farmoq e'lon qilindi D)Ahmad Karamanli boshchiligidagi qulo'g'lilar hokimiayti o'rnatildi E)“Sipohiylar qo'zg'oloni” sodir bo'ldi F)Chet davlatlarni bosqinchilik siyosatiga qarshi “yopiq eshiklar” siyosati amalga oshirildi

**36. Rossiya imperiyasining Bolqonda mustahkam o'rnashib olishga intilishi, Usmonli davlatining esa Bolqondagi slavyan xalqlarini o'z zulmi ostida saqlab turishga urinishi 1877-yilda Rossiya-Usmonli davlati urushini keltirib chiqaradi.**

a)Ushbu urush yakunida imzolangan shartnomaga nomini yozing.

**Javob:** \_\_\_\_\_

b)Ushbu shartnomaga ko'ra qaysi davlat Usmonli davlatiga nomigagina qaram, amalda esa mustaqil davlatga aylanadi ?

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

**37. XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi sarhadlarining xavfsizligini mustahkamlash uchun harbiy qal'a va istehkomlar qurilishi muhim bo'lgan.**

a)Ohangaron va Chirchiq vohasida qanday nomdagi istehkomlar bunyod etilganini aniqlang va yozing

**Javob:** \_\_\_\_\_

b)Xonlikning g'arbiy qismida joylashgan qal'a nomini yozing

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

**38. Ozarbayjon Respublikasi 1991-yil 18-oktabr kuni o'z mustaqilligini e'lon qildi. Ozarbayjon 1991-yildan beri o'tgan vaqt davomida o'zining mustaqil yo'liga ega davlat ekanligini isbotlab kelmoqda.**

a)1990-yili qaysi shaharda muxolifatchi siyosiy tashkilot – Ozarbayjon Xalq frontining namoyishi boshlangan ekanligini aniqlang va yozing.

**Javob:** \_\_\_\_\_

b) Ushbu davrda Xalq fronti kim boshchiligidagi Milliy mudofaa kengashi tuzilganligi ni e'lon qiladi ?

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

**39. Saljuqiylar davlati 1038-1308-yillarda hukm surgan.**

a) Qaysi Saljuqiy hukmdor davrida Kichik Osiyoga harbiy yurishlar amalga oshiriladi?

**Javob:** \_\_\_\_\_

b) Qaysi Saljuqiy hukmdor davrida Farg'ona egallanib, Sharqiy Turkiston gacha yetib borilgan edi ?

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

**40. Rossiya imperiyasi Xiva xonligini bosib olish uchun besh yil tayyorgarlik ko'rdi va 1873-yilda ushbu davlatni protektoratga aylantiradi.**

a) Xiva xonligiga qarshi yurish (a) sharqdan va (b) shimoldan qaysi okruglar orqali amalga oshirilgan edi ? **Javob:** \_\_\_\_\_

b) Bu davrda qaysi darvozaning ochib berilishi xonlik poytaxtining egallanishiga olib keladi ?

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

**41. Germaniya knyazliklari ichida Avstriya va Brandenburg eng kuchlilari edi. XVII asr shu ikki knyazlikning Germaniyada gegemonlik uchun kurashi ostida o'tdi.**

a) 1701-yili Brandenburg knyazligi o'rnda tuzilgan qirollik nomini aniqlang va yozing.

**Javob:** \_\_\_\_\_

b) Ushbu qirollikda qaysi hukmdor davriga kelib mutloq monarxiya qaror topgan edi ?

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

**42. Ikkinci jahon urushi davrida harbiy xizmatda bo'lgan minglab o'zbekistonliklar turli hududlar mudofaasida ishtirok etadilar.**

a) 1941-yil yozida qayerda tuzilgan motorlashtirilgan diviziya Yelnya yaqinida jangga kirganligini yozing.

**Javob:** \_\_\_\_\_

b) Ikkinci jahon urushi davrida Brest qal'asi mudofaasida halok bo'lgan o'zbek askari ismini yozing.

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

**43. 1960-yilgi prezidentlik saylovlarida Jon Kennedining g‘alabasi urushdan keyingi Amerika tarixida muhim voqeа bo‘ldi.**

a) Ushbu shaxs prezidentligi davrida ilgari surilgan islohotchilik loyihalar nima deb nom olganligini aniqlang va yozing.

**Javob:** \_\_\_\_\_

b) Ushbu shaxs qaysi partiya vakili ekanligini aniqlang.

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

**44. XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Hindiston va Usmonli kabi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy va elchilik aloqalari rivojlandi.**

a) 1812-yili Xiva xonligiga qaysi davlatlardan elchilar tashrif buyurishgan edi ? (2 ta davlat nomini yozing).

**Javob:** \_\_\_\_\_

b) 1843-1844-yillari Xiva xonligiga qaysi davlatdan elchilar tashrif buyurganligini aniqlang va yozing. **Javob:** \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

**45. Abu Bakr Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida shunday ma'lumot beradi :**  
“Muhammad ibn Ja'farning bayon qilishicha, ... (a) xalifa Muoviyha I tomonidan Xurosonga yuborilib, u Jayhun (Amudaryo) daryosidan o'tib Buxoroga kelgan vaqtida Buxoro podshohi, o‘g‘li ... (b) kichik yoshli bo‘lgani tufayli, bir xotin kishi edi. Arab lashkarboshisi Poykand va Romitanni olib ko‘p kishilarni asir qildi. To‘rt ming buxorolik asirni shaxsan o‘ziga oldi. U Buxoro shahriga yetgach, askarlarini saf qilib, palahmonlarni shaharga to‘g‘rilab qo‘ydi”.  
**Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi javobni yozing.**

a)

**Javob:** \_\_\_\_\_

b)

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.